

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Yusupov Shakir Xaitbayevich</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI	11-18
<i>Saparbaev Bunyod Khurrambek ogli</i> THE ART OF NEGOTIATION: KHIVA AND RUSSIA ENGAGEMENT UNDER MUHAMMAD RAHIMKHAN I (1806–1825)	19-28
<i>Tursunova Gavhar Begmurodovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO'CHIRISHDA MAHALLIY AHOLINING QARSHILIK HARAKATLARI (1890–1916-YILLAR)	29-32
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Baratov Otabek Aripovich</i> SHAHARLAR DEMOGRAFIYASI VA KLASSIFIKATSIYASIDAGI O'ZGARISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	33-40
<i>Сагатовна Зиёдахон Бахтияровна</i> МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	41-45
<i>Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna</i> STATISTIK NASHRLAR VA ADABIYOTLARDA TURKISTONNI ELEKTRLASHTIRISH MASALASI (XX ASRNING 20–50-YILLARI)	46-51
<i>Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING ETNIK TARKIBI, ETNOSLARNING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI (XIX ASR — XXI ASR BOSHLARI)	52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Achilova Firuza Kurbanovna</i> MINTAQA IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	57-67
<i>Султанова Дина Файзрахмановна</i> НАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКОНОМИКЕ ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА	68-72
<i>Xushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI HAYOTIY SIKL YONDASHUVI ASOSIDA OMMAVIY BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	73-82
<i>Jabbarov Nurbek Atanazarovich</i> O'ZBEKISTON SANOATIGA ENERGIYA RESURSLARINING TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	83-88

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Zaripova Hulkan Toxir qizi</i> O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY-MADANIY JARAYONLARDA MARGINAL QATLAMLARNING O'RNI	89-95
---	-------

<i>Abdullayeva Saodat Nurillo qizi</i> PAZANDACHILIK MADANIYATI VA SALOMATLIK FALSAFASI: VOZEHNING “KONI LAZZAT XONI NE’MAT” ASARIDA TAOMLARNING TIZIMLASHTIRILISHI	96-99
<i>Rajabov Behruz Baxshillayevich</i> TINCHLIK VA HAMKORLIKNING FALSAFIY MOHIYATI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O’RNI.....	100-104
<i>Artigova Adolat Ataboyevna</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING “AL-KASHSHAF” ASARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	105-109
<i>Umarova Feruza</i> MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI TAHLILI	110-116
<i>Djalalova Nigora Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNI O’RGANISHDA RAQAMLI ONG KONSEPSIYASI	117-120
<i>Ходжиметов Шахрух Русланбекович</i> ЭМИГРАЦИОННЫЕ И ИММИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ ВЛИЯНИЕ НА СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА	121-124
<i>Islamova Gulzamon Madiyevna</i> JADIDLAR DAVRIDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI.....	125-130
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> HECI KONSEPSIYASI VA MAHDUMI A’ZAM MEROSI: BAG’RIKENGLIK, AKSIOLOGIK MUSHTARAKLIK, METODOLOGIK TAFOVUT, UMUMIY NUQTALAR VA FARQLAR HAMDA AGRAR TA’LIMDA INSONPARVARLIK G’OYALARINI INTEGRATSIYA QILISH MASALASI.....	131-136
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Baydjanova Iroda Abdullayevna</i> TARJIMADA HAZIL-MUTOYIBA KONSEPTINING SAQLANISHI MUAMMOLARI: “SHUM BOLA” ASARINING O’ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI TARJIMALARI MISOLIDA	137-143
<i>Imomiddinova Nargiza</i> ASL XITOYCHA HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	144-154
<i>Sobirov Anvar Kuvandikovich</i> JONLI SO’ZLASHUV NUTQIDA SO’Z TARTIBINING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	155-159
<i>Азизова Насиба Бахритдиновна</i> ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ КАК КУЛЬТУРНЫЙ КОНЦЕПТ: РЕКОНСТРУКЦИЯ ИДЕЙ АЛИШЕРА НАВАИ И ИХ РЕЛЕВАНТНОСТЬ ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ.....	160-168
<i>Ishankulova Diyora Allovidinovna</i> UMAR XAYYOM SHE’RIYATINING G’OYAVIY-MAZMUNII MOHIYATI VA ULARNING TARJIMADAGI TALQINI	169-174

<i>Olimjon Jalilov Muxidinovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK EPOSARIDA LINGVISTIK MODELLARNING QIYOSIY XUSUSIYATLARI	175-178
<i>Achilova Zuxra Qurbonovna</i> "MALLA SAVDOGAR" DOSTONI VARIANTLARIDA BAXSHIYONA JANG POLOTNOSI VA PEYZAJ ESKIZLARI	179-184
<i>Orazgalieva Ayjamal Marat qizi</i> SYNONYMIC AND PRAGMATIC VERBALISATION OF CHILD/BALA IN ENGLISH AND KARAKALPAK LEXICOGRAPHY	185-192
<i>Babayeva Irada Sabirovna</i> LINGUOCULTUROLOGICAL APPROACH TO THE STUDY OF EMPATHIC COMMUNICATION	193-198
<i>Тоштемурова Фарангиз Шухратовна</i> РАЗВИТИЕ СЛОВАРНОГО СОСТАВА СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА И РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В ЕГО ОБОГАЩЕНИИ	199-202

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Utemuratova Sapargul Shamshetovna</i> EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARDA MAXSUS SUBYEKT TUSHUNCHASI VA MANSABDOR SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI	203-207
<i>Qilichev Xayrulla Mamatovich</i> FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK BITIMIDA ISHTIROK ETISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	208-217
<i>Бурханова Шийрин Жамшитовна</i> ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРАВОВАЯ ПОЛИТИКА И НОРМОТВОРЧЕСТВО: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ	218-223
<i>Akayeva Marapat Abduhalikovna</i> GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY SIYOSAT: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING TAHLILI.....	224-232
<i>Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna</i> XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI	233-240
<i>Хидоятлов Бахтиер Батырович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ В ПОЛУЧЕНИИ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ	241-250
<i>Dadaboyeva Jumagul Anvarovna, Habibullayev Muhammadrajab Obidjonov</i> JAHON HAMJAMIYATINING GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHGA QARATAYOTGAN E'TIBORI	251-256
<i>Абдулжаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> МОБИЛЬНОЕ БАНКОВСКОЕ МОШЕННИЧЕСТВО: УГРОЗЫ, МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНИЯ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ	257-267
<i>Nasridinov Yigitali Borataliyevich</i> XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY ASOSLAR	268-276

<i>Mirzakarimova Dilafruz Doniyorjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT YORDAMIDA KIBERHUUJUMLARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISH	277-281
<i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SUKUK INSTRUMENTLARINING INSTITUTSIONAL ROLI	282-289
<i>Нодирбекова Дилдона Абдумалик кизи</i> КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРАВА НА ДОСТУП К ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ И ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ПРАКТИКИ	290-297
<i>Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li</i> QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI	298-307
<i>Отлубаева Айгуль Бахрамовна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ С ОПЫТОМ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН	308-316
<i>Mukimbayev Otabek Sattarovich</i> GUVOHNING MAQOMINI HUQUQIY HIMOYALASHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR.....	317-324
<i>Yakubov Mirzaxid Turabayevich</i> NORMATIV-HUQUQIY HUUJATLAR IJROSINI TA'MINLASHNING XORIJIY MODELLARI VA MILLIY AMALIYOT UCHUN XULOSALAR	325-333
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> RAQAMLI TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TALABLARI.....	334-338
<i>Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullayevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA BO'LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	339-348
<i>Yusupova Kamola Nuriddinovna</i> NEYROPEDAGOGIKA TA'LIM TIZIMINING YANGI ILMIY TARMOG'I SIFATIDA.....	349-353
<i>Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich</i> ZAMONAVIY SHAROITDA HARBIY KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....	354-358
<i>Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna, Xujamova Dilobar Berdiyrovna</i> OLIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY VA KASBIY KONGRUENTLIGINI LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI.....	359-366
<i>Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV RAQAMLI TA'LIM TIZIMINI LOYIHALASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI	367-371

<i>Исмаилов Шухрат Абдусоат угли, Инназаров Маджид Амонович</i> МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА РЕЗУЛЬТАТАХ (PERFORMANCE-BASED FUNDING), В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ	372-378
<i>Rakhmatova Madina Abdumumin kizi</i> IMPLEMENTATION OF PROGRAMS FOR AUTOMATIC DETECTION AND CORRECTION OF GRAMMATICAL ERRORS IN ENGLISH WRITING.....	379-384
<i>To'rayev Azamat Maqsudovich</i> TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BO'SH VAQTNI TASHKIL ETISHNING RAQAMLI METODIKASI	385-390
<i>Mahmudova Farangiz Qurbonboy qizi</i> STUDENTS' ATTITUDES TOWARD AI USE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING: HELP OR HINDRANCE?	391-399
<i>Burxonova Muxlisa Murtoz qizi</i> O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI BADIY MATNLARNI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	400-404

Received: 16 February 2026

Accepted: 01 March 2026

Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

EPIK BATTLE COMPOSITIONS AND LANDSCAPE SKETCHES IN THE DOSTONI VARIANTS OF “MALLA MERCHANT”

Achilova Zuxra Qurbonovna

Independent Researcher, Department of Uzbek Language and Literature
Karshi State University

E-mail: achilovaf@gmail.com

Abstract. The article analyzes issues of the battle tableau (the batal genre), landscape depiction, and the sketch-like stylistics of artistic language in the variants of the epic “Malla Savdogar” performed by the bard Jora Eshmirza ogli. In the course of the study, battle and confrontation episodes within the epic’s plot are examined, along with the functional role of natural landscapes and the features of concise yet vivid imagery characteristic of bardic performance. Through the battle tableau, themes of heroism, courage, and socio-ethical oppositions are articulated, while landscape sketches are shown to intensify the emotional and philosophical layers of the narrative. The article provides a scholarly and theoretical account of the place of epic representational devices within the ideological and artistic system of the epic.

Keywords: “Malla Savdogar” epic, bardic creativity, battle tableau, batal genre, landscape, sketch stylistics, epic representation, poetics of heroism, folk epic tradition.

“MALLA SAVDOGAR” DOSTONI VARIANTLARIDA BAXSHIYONA JANG POLOTNOSI VA PEYZAJ ESKIZLARI

Achilova Zuxra Qurbonovna

Qarshi davlat universiteti o‘zbek tili va adabiyoti, kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada baxshi Jo‘ra Eshmirza o‘g‘li tomonidan kuylangan “Malla savdogar” dostonining variantlarida jang polotnosi (batal janri), peyzaj tasviri va badiiy so‘zning eskiz uslubi masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida doston syujetidagi jang va to‘qnashuv epizodlari, tabiat manzaralarining funksional vazifasi hamda ixcham, lekin obrazli tasvirlarning baxshiyona ijroga xos xususiyatlari ochib beriladi. Jang polotnosi orqali qahramonlik, jasorat va ijtimoiy-axloqiy qarama-qarshiliklar yoritilgan bo‘lsa, peyzaj eskizlari orqali voqealarning emotsional-falsafiy qatlamlari kuchaytirilgani asoslab beriladi. Maqolada epik tasvir vositalarining doston g‘oyaviy-badiiy tizimidagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi.

Kalit so‘zlar: “Malla savdogar” dostoni, baxshi ijodi, jang polotnosi, batal janri, peyzaj, eskiz uslubi, epik tasvir, qahramonlik poetikasi, xalq dostonchiligi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N28>

Kirish. O‘zbek xalq dostonchiligi milliy badiiy tafakkurning qadimiy va serqirra qatlamlaridan biri bo‘lib, unda epik voqealar, qahramonlik g‘oyalari va xalqning axloqiy-estetik qarashlari mujassam holda namoyon bo‘ladi. “Malla savdogar” dostoni ana shunday yuksak badiiy an‘analarga tayangan holda yaratilgan epik asarlardan biridir. Dostonda jang manzaralari, peyzaj tasvirlari va eskiz xarakteridagi badiiy ifodalar syujet rivojiga xizmat qiluvchi muhim poetik vositalar sifatida qo‘llanadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi “Malla savdogar” dostonining turli variantlarida jang polotnosi va peyzaj eskizlarining badiiy-funksional xususiyatlarini aniqlash, ularning

qahramon obrazlarini yoritishdagi hamda doston g'oyaviy-estetik mazmunini chuqurlashtirishdagi rolini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iboratdir.

“Malla savdogar” dostonida badiiy janrlarning qo'llanilishi baxshi ijodiy mahoratini belgilovchi muhim poetik omillardan biridir. Xususan, asarda batal (jangnoma) janri, peyzaj tasviri hamda badiiy so'zning eskiz uslubiyati syujet voqealari bilan uzviy bog'liq holda qo'llanib, dostonning g'oyaviy-estetik mazmunini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Batal janr – “batal” fransuzcha so'z bo'lib, “jang”, “urush” ma'nosini bildiradi. U jang manzaralarini o'zida aks ettiradi. Bu janrda jang va harbiy yurishlar manzarasi asosiy o'rinni egallaydi. Batalist – rassomlarning asarlarida jangchi obrazi, uning qahramonligi, mardligi jasorati hamda o'z ona Vataniga bo'lgan cheksiz muhabbati ifodalanadi. [1.34-b] Eslatib o'tish joizki bu janr “jang polotnosi” nomi bilan ham san'at va badiiyatda qo'llanadi.

Dostondagi batal janr unsurlari jang va to'qnashuv epizodlarida yaqqol namoyon bo'lib, qahramonlarning mardligi, jasorati, vatanparvarlik ruhi va irodaviy barkamolligini ochib beradi. Baxshi jang manzaralarini keng tasvirlashdan ko'ra, dinamik va obrazli ifoda orqali jangning ruhiy-psixologik mohiyatini yoritadi. Bu hol jangnomaga xos epik patosni kuchaytirib, qahramon obrazini ideallashtirishga xizmat qiladi.

Peyzaj janri esa dostonida voqealar rivoji va qahramon ruhiy holatini ochishda muhim poetik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tabiat tasvirlari ko'pincha syujet voqealariga fon bo'lib xizmat qilsa-da, ayrim epizodlarda parallelizm va kontrast usulida qo'llanib, qahramon kechinmalari bilan uyg'unlashadi. Peyzaj orqali baxshi dramatik vaziyatni kuchaytiradi, voqealarning emotsional ta'sirchanligini oshiradi va epik makon kengligini ta'minlaydi.

Peyzaj – (fr. paysage – mamlakat, joy so'zlaridan) badiiy asarda aks ettirilgan joy, tabiat tasviri bo'lib, u yozuvchining usuli va uslubi bilan bog'liq holda turlicha vazifalarni o'taydi.

Peyzaj qahramonning ruhiy holatini ifodalashda fon vazifasini bajarishi, parallelizm yoki kontrastga xizmat qilishi mumkin. Umuman, peyzaj badiiy asar kompozitsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida juda ko'p vazifa bajaradi. [2.116-b.]

Dostonida badiiy so'zning eskiz uslubiyati epizodik tasvirlarda, ayniqsa, tezkor voqealar bayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Baxshi ayrim sahnalarni batafsil tasvirlashdan ko'ra, ixcham, lekin ma'no jihatidan boy obrazlar orqali voqelikni umumlashtiradi. Ushbu eskiz xarakteridagi tasvirlar dostonning og'zaki ijroga xos tabiati bilan uyg'unlashib, tinglovchi tasavvurida voqealarni jonlantiradi.

Eskiz (frans.) — badiiy asar yoki uning alohida qismlari g'oyasini aks ettiruvchi dastlabki qoralama, xomaki asar. Eskizda bo'lajak asarning kompozitsiya yechimi, shakllarning fazoviy kenglikda joylashuvi va ularning o'zaro nisbatlari, umumiy rang tizimi xususiyatlari va boshqalar belgilab olinadi.

Eskiz erkin, tez qoralama tarzida bajariladi, ayrim hollarda bo'lajak asarning mayda unsurlari ham o'z aksini topadi. Ko'p hollarda Eskiz mustaqil asar darajasiga ko'tarilishi va badiiy qiymatga ega bo'lishi mumkin. [3.219-b.]

“Malla savdogar” dostonida batal janrining epik qudrati, peyzajning ruhiy-funksional vazifasi hamda eskiz uslubiyaning ixcham va obrazli ifodasi baxshi poetik tafakkurining yetukligini ko'rsatadi. Ushbu badiiy unsurlar syujet voqeligini estetik jihatdan mukammallashtirib, dostonning janr xususiyatlari va g'oyaviy mazmunini chuqur ochib berishga xizmat qiladi.

Quyida baxshi Jo'ra Eshmirza o'g'li tomonidan kuylangan "Malla savdogar" dostoni variantlaridan olingan syujet fragmentlardagi jang polotnosi (batal), peyzaj (manzara), epizodli eskizlarni badiiy talqinini ko'rib chiqamiz.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tadqiqot davomida o'zbek va jahon adabiyotshunosligida jang janri, peyzaj tasviri va eskiz tushunchalariga oid nazariy qarashlar tahlil qilindi. Jumladan, O.N. Shomurodovning tasviriy san'atga oid ishlari, D. O'rayeva va D. Quvvatovanning adabiy terminlar lug'ati, shuningdek, O'zbekiston milliy ensiklopediyasidagi nazariy izohlar metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada qiyosiy-tahliliy, strukturaviy va poetik tahlil metodlaridan foydalanildi. Doston matnidagi jang va peyzaj epizodlari kontekstual yondashuv asosida o'rganilib, baxshiyona ijroga xos badiiy xususiyatlar aniqlanadi.

Tahlil va natijalar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, "Malla savdogar" dostonida jang polotnosi ikki xil badiiy ko'rinishda namoyon bo'ladi. Birinchi holatda (Malla savdogar va Bektosh bilan bog'liq epizod) jang zo'ravonlik va zulm akti sifatida tasvirlanib, ijtimoiy adolatsizlik motivlarini kuchaytiradi. Ikkinchi holatda (Avazxon va yovlar bilan bog'liq epizod) esa jang epik qahramonlik va muqaddas g'azo darajasiga ko'tariladi.

Peyzaj eskizlari doston voqealariga oddiy fon bo'lib qolmay, balki qahramonlarning ruhiy holatini ochuvchi faol poetik vosita vazifasini bajaradi. Cho'l, tog', chashma kabi makonlar voqealarning dramatik rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Eskiz uslubi esa tezkor syujet bayonini ta'minlab, og'zaki ijroga xos obrazli umumlashtirishni kuchaytiradi.

Malla savdogar va Bektosh bilan bog'liq jang polotnosi tasviri: Savdogar bir necha kun-u tunni yo'lini bosib o'tadi. Qizil suv degan chashma bor joyga bir oz hordiq olish uchun tuyalarini cho'ktirib, yuklardan holi qilib, bir oz o'tlasin deb haydab qo'yadi. Olov yoqib, choy qaynatib, osh pishirib yeydi. Keyin tuyalarni yig'ib, yuklarini yana yuklab, yo'l tadorigini ko'radi. Ammo shu asnoda dostonida noxush voqea sodir bo'ladi. Dostonida Bektosh kofir ming kishi bilan cho'lma-cho'l, tog'ma-tog' ovlab yurgan bo'ladi. Ahmad vazirni Bektosh bilan oshnoligi bo'lib, u qabih niyatini shu qaroqchi orqali amalga oshiradi. Ahmad vazir o'zgalarga yomonlik qilib huzurlanadigan timsol sifatida gavdalanadi. Albatta Bektosh karvon yo'lida noxos savdogarga duch keladi. Bektosh savdogarni o'ldirib, mol-u dunyosini talab oladi, kajavani oybolta bilan bo'laklab sindirib, Jo'zumko'zni, Gulnorni, Nuralixonni qo'llarini orqaga qilib boylab, zulm bilan o'lja qilib haydab ketadi. shundan keyin uchovining azobli kunlari yana ko'payadi. [334-b.]

Parchaning mavzu mohiyati va badiiy konsepsiyasida keltirilgan fragment dostonning dramatik burilish nuqtasi bo'lib, unda zo'ravonlik, talon-toroj va ijtimoiy adolatsizlik motivlari markaziy o'rin egallaydi. Voqealar rivojida ezgulik va yovuzlik antitezasi aniq namoyon bo'lib, Malla savdogar tinch hayot va halol mehnat timsoli sifatida, Bektosh esa yovuzlik va vahshiylikni ifodalovchi antagonistik obraz sifatida gavdalanadi. Ahmad vazir esa fitna va bilvosita yovuzlik manbai bo'lib, konfliktni chuqurlashtiruvchi kuch vazifasini bajaradi.

Peyzaj eskizi va badiiy makonning voqelikdagi jarayonida dostonidagi voqealar cho'l va tog' manzaralari fonida kechadi. Qizil suv chashmasi epizodi badiiy peyzaj sifatida muhim semantik yukni o'zida mujassam etadi. Bu makon dastlab osoyishtalik, dam olish va xavfsizlik muhitini yaratadi: savdogarning tuyalarni cho'ktirish, ovqat pishirish jarayoni tinch hayot ritmini ifodalaydi.

Ammo aynan shu osoyishta makon keyingi fojiaiy hodisalarga sahna bo'lishi orqali keskin kontrast tamoyilini yuzaga chiqaradi. Cho'l va tog'lar – qonunsizlik va yovvoyi kuchlar hukmron bo'lgan hudud sifatida tasvirlanib, Bektoshning paydo bo'lishi bilan peyzaj dramatik makonga aylanadi. Shu tariqa peyzaj voqelikdagi jarayonni bevosita belgilovchi faol badiiy unsur sifatida namoyon bo'ladi.

Jang polotnosi va zo'ravonlik jarayoni: Dostondagi ushbu parchada jang polotnosi an'anaviy keng ko'lamli urush tasviri shaklida emas, balki vahshiy hujum va zulm aktlari orqali ochiladi. Bektoshning savdogarni o'ldirishi, mol-dunyoisini talab olishi va kajavani oybolta bilan parchalashi epik zo'ravonlikning kulminatsion nuqtasini tashkil etadi.

Bu yerda jang ikki kuch o'rtasidagi teng to'qnashuv emas, balki mutlaq ustunlikka ega yovuz kuchning begunoh qurbon ustidan qilgan tajovuzi sifatida talqin etiladi. Jang polotnosi jarayon sifatida qisqa, ammo nihoyatda shafqatsiz va ta'sirchan bo'lib, dostonning fojiali ohangini kuchaytiradi.

Qahramonlar fe'l-atvori va harakati: Malla savdogar – yo'l, karvon va mehnat bilan bog'liq obraz bo'lib, uning fe'l-atvori sokinlik va ishonchga asoslangan. U xavfni sezmay, taqdir zarbasiga duch keladi.

Bektosh – shafqatsiz, zo'ravon, talonchi xarakteriga ega bo'lgan qaroqchi. Uning harakati vayronkorlik va zulmga yo'naltirilgan bo'lib, jang polotnosining asosiy ijrochisidir.

Jo'zumko'z, Gulnor, Nuralixon – zo'ravonlik qurbonlari sifatida tasvirlanib, ularning bog'lab olib ketilishi dostonning fojiaiy-estetik qatlamini chuqurlashtiradi. Ayniqsa ayol obrazlari orqali zulmning axloqiy tubanligi ochib beriladi.

Ahmad vazir – bevosita sahnada ishtirok etmasa-da, voqealar rivojiga sababchi bo'lgan makr va fitna timsolidir.

Mazkur parcha "Malla savdogar" dostonida jang polotnosi va peyzaj eskizlarining voqelik bilan uyg'unlashuvi, qahramonlar xarakterining keskin qarama-qarshiligi, hamda ijtimoiy-axloqiy muammolarning badiiy talqinini yorqin namoyon etadi. Fragment dostonning g'oyaviy-badiiy tizimida muhim o'rin tutib, xalq epik an'alariga xos drammatizm va realistik tasvir orqali asarning umumiy mazmunini chuqur ochib beradi.

Avazxon va yovlar bilan bog'liq jang polotnosi tasviri: Yo'lda Avazxonni va hamrohlari ortidan izma-iz Bog'dodning hisobsiz lashkarlari kelayotganini payqaydi. Avazxon avvali xudo, pirlarini yod etib, G'irotdan birga lashkarlarga ro'para bo'ladi. Jang tasviri poetikasi quyidagicha tasvirlanadi:

G'animga bo'ldi ro'paro'y,
Rahm aylasin qodir xudoy,
Ostida o'ynaydi bodpoy,
Boshidan o'limdan bearvoy,

.....

Ovshar ko'pdi, Avaz yakka,
Obro'y bersin yolg'iz bekka,
Qorday to'shin tutib borar
Do'lanaday yoqqan o'qqa.

.....

Urgan do'bil mashg'ulotiga,
Ko'rmaysizmi layli G'irotdan

**Har bir dobil urganda,
To'qqiz gaz osmonga uchdi.**

Avazxonni dobil sasidan qo'rqib lashkarlar ortga qaytadi. Shohdorshoh degan lashkarboshi ularni jang qilish uchun iziga qaytaradi. Avazxondan qo'rqib Shohdorshoh qilichi bilan yerni chizgan joyidan Bog'dodga qarab qochayotgan lashkarlarni "tilla but, otashparast avliyo, lotu monot ursin" deb qasam beradi. Baxshi sozida Avazxonni jangdagi tasviri yanada yorqinlashadi.

**O'lmasin botir Avazxon,
Aslo badani hurkmaydi,
Dushmanga bo'ldi ro'paro'y.**

.....
**Otni maydonda yeldi
Rustamning jangi bo'ldi,
Kim o'lib kimlar qoldi,
Hisobini Ollo bildi.**

Xullas, to'qqiz kechayu kunduz g'ozoga aralash bo'ladi. Jang yakuniga yetib, Avaz iziga qizlar qoshiga keladi. Avazxon oftoba suvida a'zoyi badanini poklab oladi. Shu yerda bir kamar bo'lib, Go'ro'g'li Avazxonni koriga yarar deb har xil zotdan ehtiyot qilib qo'yar edi. Avazxon idish-tovoqlarni hammasini kamar ichiga joylab, toshdan yo'ndirilgan kamarni og'ziga qopqoqni yopdi. So'ngra uch qiz bilan Chambilga yo'l oladilar. [356-357-358-b.]

Jang polotnosi va peyzaj eskizlarining ilmiy talqini: Malla savdogar dostonining mazkur epizodida jang polotnosi epik qahramonlik poetikasi asosida shakllangan bo'lib, unda Avazxon obrazi xalq idealining badiiy timsoli sifatida namoyon bo'ladi. "Yakka botir – ko'p sonli yov" qarama-qarshiligi dostonchilik an'alariga xos tipik epik konfliktni yuzaga keltiradi. Avazxonning jangga kirishdan avval Xudo va pirlarni yod etishi uning harakati muqaddaslashtirilgan g'azo sifatida talqin etilishini ta'minlaydi.

Jang tasvirida qo'llangan mubolag'alar ("to'qqiz gaz osmonga uchdi", "to'qqiz kecha-kunduz") mifopoetik vaqt va makon tushunchalarini ifodalaydi. Bu orqali qahramonning jismoniy kuchi emas, balki epik qudrati ulug'lanadi. Shohdorshoh va lashkarlarning qo'rquv holati antagonistik kuchning ma'naviy-psixologik zaifligini ochib beradi.

Qahramon fe'l-atvori va jangovar harakatlar: Avazxon fe'l-atvorida jasorat, qat'iyat va iymon yetakchi xususiyatlar sifatida namoyon bo'ladi. Uning dushmanga ro'para chiqishi faol va hujumkor xarakter belgisi bo'lib, xalq epik qahramonlariga xos axloqiy ustunlikni ifodalaydi. Jangdan keyingi oftoba suvida poklanish sahnasi esa ritual tozalanish motivi orqali qahramonning ma'naviy kamolotini ta'kidlaydi.

G'irotni obrazining epik funksiyasi: G'irotni dostonida oddiy ot emas, balki Avazxonning jangovar hamrohi va qudratini to'ldiruvchi epik timsoldir. "Layli G'irotni" shaklidagi nomlanish ot obrazining antropomorfik va mifologik xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. Inson va ot birligi xalq dostonlarida keng uchraydigan "qahramon-hamroh" modelini ifodalaydi.

Baxshiyona badiiy uslubiyatning o'ziga xosligi: Mazkur parcha baxshi ijodiga xos sinkretik uslubda yaratilgan bo'lib, unda so'z, ohang va dramatik tasvir uyg'unlashgan.

Takrorlar, epitetlar va mubolag'alar jang dinamikasini kuchaytirib, og'zaki epik nutqning ritmikligini ta'minlaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, ushbu epizod Avazxon obrazini ideal qahramon darajasida yoritib, jang polotnosi va peyzaj eskizlari orqali xalqning jasorat, iymon va adolat haqidagi tasavvurlarini badiiy umumlashtiradi. Parchaning ilmiy mohiyati shundaki, u o'zbek dostonchiligida jang motivining estetik, axloqiy va marosimiy funksiyalarini ixcham va tizimli tarzda namoyon etadi.

"Malla savdogar" dostonida jang polotnosi, peyzaj va eskiz uslubi baxshi poetik tafakkurining yetukligini ko'rsatadi. Ushbu badiiy unsurlar qahramonlik g'oyalarini, axloqiy qarama-qarshiliklarni va xalqning estetik qarashlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelgusida mazkur dostonni boshqa xalq epik asarlari bilan qiyosiy o'rganish, shuningdek, baxshiyona ijro va musiqiy komponentlar bilan uyg'un holda tahlil qilish ilmiy jihatdan samarali natijalar berishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O.N.Shomurodov "Tasviriy san'at tarxi" (o'quv qo'llanma), Buxoro. "Durdona" nashriyoti, 2021-yil .34-b.
2. D.O'rayeva, D.Quvvatova "Jahon adabiyoti terminlarining izohli lug'ati" (o'quv qo'llanma) Toshkent. "Navro'z" nashriyoti, 2019-yil.116-b.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, E-harfi, Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2005-yil.219-bet.
4. Nurali dostoni turkumi. Baxshi Jo'ra Eshmirza o'g'li variant "Malla savdogar" dostoni, Toshkent. "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at" nashriyoti 1989-yil. 334-b. 356-357-358-b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).